

## **ONTOGENEZ TARAQQIYOTDA SHAXSNING TARKIB TOPISHI.**

**Xakimova Dilnoza Mo‘minjonovna**  
**Andijon davlat pedagogika instituti Aniq fanlar fakulteti**  
**Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-kurs 102-guruh talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning ontogenetik taraqqiyot davrida shaxsdagi etnopsixologik xususiyatlarning tarkib topishi, dunyoqarashining shakllanishi, ijtimoiylashuv jarayonida ta’lim va tarbiyaning hamda etnopsixologik ma’daniyatning ijtimoiy va siyosiy hayotda muhim psixologik xususiyatlari.

**Kalit so‘z:** Ontogenez taraqqiyotida, shaxsning tarkib topishi, ta’lim-tarbiya, madaniy va manaviy, millatlararo munosabat, etnik qadriyat, ijtimoiy va siyosiy hayotda etnopsixologik qarashlar,

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta’lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo‘lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, hamda ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Eng mashhur rus psixologi va faylasuflaridan biri L.S. Vigotskiy o‘z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko‘plab g‘oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L.S.Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar ma’naviy tarbiyasi va ta’limini rivojlantirishda, tarkib toptirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi birinchi o‘rinda turar edi.

L.S. Vigotskiyning izlanishlari, ya’ni shaxsning ontogenetik taraqqiyot davrida oliy psixik funksiyalar ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo‘lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko‘rsatdi. Aynan L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim yetakchi poydevor bo‘lib xizmat qiladi. L.S. Vigotskiyning fikricha, muhit oliy psixik funksiyalar taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi roli yosh o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-atvorning tug‘ma shakllari mavjud bo‘lmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o‘zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofiziologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi. [1,c.54]. Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ma’naviy ta’lim va tarbiyadir. L.F.Obuxovanning fikricha, L.S. Vigotskiyning katta xizmati shundaki, u bolalar psixologiyasi faniga tarixiylik tamoyilini kiritgan. Ushbu tamoyilga ko‘ra, psixik xodisalar harakatdagi narsa sifatida o‘rganilishi lozim. Madaniy-tarixiy kontsepsiya L.S. Vigotskiy tomonidan XX asming 20-30 yillarida ishlab chiqilgan inson psixik taraqqiyoti haqidagi nazariyadir. Kontsepsiyaning asosiy mazmuni quyidagilardan tashkil topgan. Mehnat qurolarini ishlatishi tufayli odam tabiatdan ajralib chiqqan. Tabiatga ishlov berish uchun odam ushbu qurollardan foydalansa, o‘z psixikasiga ta’sir ko‘rsatish uchun u psixologik qurollarni qo‘llaydi. Psixologik qurollar belgilardan iboratdir. Ushbu qurollar ixtiyoriy psixik funksiyalar, ixtiyoriy diqqat va xotira, mantiqiy fikrlash, irodaviy harakatlar va etnopsixologik bilimlarning asosinitashkil etadi. Masalan, bolaning manaviy ortda qolish, odatiy kiyim kiyishda ketma- ketlikni buzishi ham bilish jarayoni ya’ni xotirasining zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik qurollarni egallamaganligi tufaylidir. Shunday qurol sifatida, bolaga kiyimlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. Madaniy-tarixiy

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

kontseptsianing muhim g’oyalardan biri rivojlanishning eng yaqin zonasi haqidagi nazariy qarashdan iborat. Rivojlanishning eng yaqin zonasi bola rivojlanishining ayni vaqtdagi darajasi bilan kelajakda erishish mumkin bo’lgan taxminiy darajasi o’rtasidagi vaqtinchalik masofadan iborat. Bu zonaga yetilmagan, ammo yetilish jarayonida bo’lgan funksiyalar kiradi. Bolaning aktual rivojlanish darajasi uning bugungi kundagi taraqqiyot darajasini, bola rivojlanishining eng yaqin zonasi ertangi kunda bola o’z taraqqiyotida erishishi mumkin bo’lgan taraqqiyot darajasini ifodalaydi. Rivojlanishning eng yaqin zonasini bola katta odam yordami bilan bajara oladigan vazifalar darajasi belgilaydi. Agar bola o’zi uchun qiyin bo’lgan vazifani katta odam yordami bilan bajara olsa, bu vazifa bola rivojlanishining eng yaqin zonasida joylashgan bo’ladi.

Rus pedagogi va psixologi L.S.Vigotskiyning fikricha, psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ta’limdir. Ta’lim psixik taraqqiyotni o’z ortidan tortadi va uni tezlashtiradi. U kutilgan natijani berishi uchun taraqqiyotdan oldin bo’lishi, ya’ni rivojlanishning eng yaqin zonasiga mo’ljall olishi lozim. Millat va millat bilan bog’liq bo’lgan ko’plab omillar ijtimoiy va siyosiy hayotda muxim ro’l o’ynab kelgan va bundan keyin ham uzoq davrgacha o’z axamiyatini yo’qotmaydi. Olimlarning ko’rsatishicha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining turli bosqichlarida turgan to’rt mingga yaqin millat, ellat va turli xalqlar mavjud ekan. Ularning xar birini o’z tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlar bor. Ularni o’rganish millatlararo munosabatlarini tashkil qilishda, turli iktisodiy, madaniy aloqalarni o’rnatishda katta yordam beradi.

Lekin yaqin davrgacha bizning ijtimoiy fanlar tizimida milliy masalalar va unda psixologik omillarning tutgan o’rniga yetarlicha baho berilmay kelindi. Ayrim xollarda esa asossiz ravishda inkor etildi. Xatto ba’zi bir tadqiqotchilar milliy xususiyatlar, etnopsixologiya masalalarini o’rganishga shubxa bilan qarashdi. Bunda ular etnopsixologiya masalalarini o’rganish bir xalqni maqtab, ikkinchisini kamsitishga olib kelishi, irqchilik, millatchilikni kelib chikishiga sabab bo’ldi, deb xavotirlanishdi. Bu xadiksirashda ma’lum asos xam bor edi. Etnopsixologiyaga oid ayrim tadqiqotlarda mualliflar o’z millatlarni xaddan tashqari ko’klarga ko’tarib yuborish, boshqa qo’shni xalqlardan ustun qo’yish xollari bo’lganki, bu tabiiy turli noroziliklarni tug’ilishiga sabab bo’lgan.\*3, c.153+. Shuning bilan birgalikda xalqlarning voqelik va tabiatni idrok qilish, kiyinish, avlodlar tarbiyasi, avlodlar o’rtasidagi munosabatlardagi o’ziga xosligini xisobga olmaslik xam mumkin emas. Etnik o’ziga xosligini inkor etish, milliy munosabatlarda xisobga olmaslik turli salbiy munosabatlarni, xatto etnik nizolarni keltirib chiqishiga ham sababchi bo’lib qolishi mumkun.

Etnopsixologiya fani ham xar bir ontogenez davrining psixolog xususiyatlarini hisobga olgan holda talimiy-tarbiyaviy ta’sir o’tkazish insonda o’z vaqtida o’zini o’zi anglashni vujudga kiltiradi. Bolada o’zini o’zi anglash tuyg’usi qancha erta uyg’onsa, shaxsiy nuqtai nazar, o’z huquqini o’zi his etish, o’zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo’ladi. Huddi shu asnoda injiqlik, o’jarlik va qaysarlik kabi illatlar tarkib topishiga ruhiy to’siq sifatida poydevor vazifasini o’tashda vujudga keladi. Shahslararo munosabatlardagi qarama-qarshilik, ziddiyat, inqirozlarning kelib chiqishi va rivojlanishi manaviy va tarixiy hamda etnopsixologik qonunlariga loqayd qarashning oqibatidir.

Inson psixikasidagi umidsizlik, ijtimoy adolat uchun kurashish ruhining nazariya bilan turmush nomutanosibligining mahsulidir. Odamlarda, dunyoqarash, muomila, muloqot, mustaqil hulq-atvorni samarali tarzda yuqoridagi yuqori darajadagi idealarga bog’liqdir. Kishidagi tashabbuskorlik hamda to’siqlarni yengishga intilish, iroda sifatlarini aniqlash va ularga yosh (ontogenez) psixologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ruhiy turtki berish maqsadga muvofiqdir. \*5, c. 273+ Ta’limning barcha bosqichlarida, ijtimoiylashishda

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

uning samaradorligini oshirishda ontogenez psixologiyasining taraqqiyotiga hamda qonuniyatlariga suyanmog‘i zarur. Bolalar jamoasi, oila muhiti, mehnat jamoalarida shaxslararo iliq munosabatlarni shakllantirish va yosh davrlar xususiyatlarini inobatga olishning mahsuli sanaladi. Hatto, kishining uzoq umr ko‘rishi va unda ishchanlik kobiliyatining saklanishi, istiqbol rejasi va ezgu-maqsadi bilan yashashi ham yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqotda bo‘lishning mevasidir. Umuman, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida oila, tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida ontogenez psixologiyasidan foydalanish ta’lim va tarbiyaning, shaxslararo ijobiy munosabatlar o‘rnatishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishninggarovidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.G‘. G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent.NIF MSH 2020
2. N. Ismoilova D.Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” T. 2013
3. Ergash G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi” nazariy eksperimental tahlil noshir t 2020
4. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). Psychological factors in the manifestation of aggressive behavior in adolescence. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 122-125.
5. Tolibdjanovna, A. Z. (2024). social And psychological factors in the formation of psychological culture of students. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 428-431.
6. Tolibdjanovna, A. Z. (2023). Psychological Factors of Manifestation of Aggressive Behavior in Teenagers during Globalization.
7. Xosilbekovna, S. F. (2024). Social and psychological determinants of increasing women's labor efficiency are related to the topic. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 440-443.